
“MEHR DAFTARI” DAGI YOSHLARGA E’TIBOR

Yetim bolalar va ota-ona qarmogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning muammolarini oʻrganish hamda hal etish, ularning orzu-istaklarini roʻyobga chiqarishga hamda jamiyatga ijtimoiylashuviga koʻmaklashish, ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qarmogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2022 yil 17 yanvardagi 26-sonli qarori qabul qilingan.

Qaror ijrosini taʼminlash borasida Rishton tumanida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, kecha tumandagi chin yetim, ota-ona qarmogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning 5 nafariga koʻmak koʻrsatildi.

Xususan, 3 nafariga mebel jihozlari va badiy kitoblar toʻplami, 1 nafariga mebel jihozlari va badiy kitoblar toʻplami va noutbuk, 1 nafariga musiqa anjomi topshirildi.

Tuman hokimi "Toʻraobod" MFYda yashovchi yoshlarga mebel jihozlari va kitoblar toʻplami, noutbukni oʻz egalariga topshirar ekan, hukumatimiz tomonidan yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida toʻxtalib oʻtdi.

2023-03-31 15:51:28